QASHQADARYO VILOYATI KOSON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 24-dekabr | 417-4-60-Q/24 | Koson tuman hokimligi

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-noyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish boʻyicha milliy strategiyani amalga oshirish yuzasidan 2024-2025-yillarga moʻljallangan milliy dasturini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi 759/62-son qarori hamda Qashqadaryo viloyati hokimining 2024-yil 27-noyabrdagi 586-4-0-Q/24-sonli qarori haqida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-noyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish boʻyicha milliy strategiyani amalga oshirish yuzasidan 2024-2025-yillarga moʻljallangan milliy dasturini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi 759/62-son qarori hamda Qashqadaryo viloyati hokimining 2024-yil 27-noyabrdagi 586-4-0-Q/24-sonli qarori ijrosini taʼminlash maqsadida hamda Oʻzbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida"gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-noyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish boʻyicha milliy strategiyani amalga oshirish yuzasidan 2024-2025-yillarga moʻljallangan milliy dasturini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi 759/62-son qarori hamda Qashqadaryo viloyati hokimining 2024-yil 27-noyabrdagi 586-4-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan Oʻzbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish boʻyicha milliy strategiyani amalga oshirish yuzasidan 2024-2025- yillarga moʻljallangan milliy dastur (keyingi oʻrinlarda - Milliy dastur) ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin va tegishliligi boʻyicha ijroga qaratilsin.

3. Koson tumanida O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish boʻyicha milliy strategiyani amalga oshirish yuzasidan 2024-2025-yillarga moʻljallangan milliy dastur ijrosini ta’minlash bo‘yicha Yo‘l xaritasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish boʻyicha tuman komissiyasi (Sh.Jo’rayev):

a) har oyda:

Milliy dastur ijrosini mutasaddi idoralar va komissiya tomonidan bajarilishini tanqidiy oʻrganib borsin;

Milliy dastur ijrosini monitoring qilsin, ushbu yoʻnalishda joylardagi mutasaddi idora va tashkilotlar hamda tumandagi hududiy komissiya faoliyatini muvofiqlashtirgan holda maxsus platformaga tahliliy maʼlumotlar kiritib borilishini ta’minlasin;

b) tanlov asosida tumandagi hududiy komissiyaning sohaga oid faoliyatini oʻrgansin va har chorak yakuni bo'yicha tanqidiy va tahliliy maʼlumotlarni viloyat komissiyasiga kiritib borsin;

v) tumanda Milliy dasturning ijrosini ta’minlash boʻyicha manzilli "yo'l xaritasi"da belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlashga ma'suliyatsizlik bilan yondoshgan joylardagi mutasaddi idora va tashkilotlar rahbar va xodimlariga, tuman komissiya aʼzolariga nisbatan tegishli choralar koʻrilganligi bo‘yicha viloyat komissiyasiga axborot kiritib borsin.

5. Hududiy komissiya raislari bir hafta muddatda hududlar kesimida Milliy dasturning ijrosini ta'minlash bo'yicha yoʻl xaritalarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining oʻrinbosari Sh.Jo’rayev zimmasiga yuklatilsin

Koson tuman hokimi **A.Boykaraev**